

MUXTOR ASHRAFIY UY-MUZEYI: TARIXDAN ZAMONAVIY TAJRIBAGA



Orifjonova Gulra'no Ravshan qizi

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent v.b,

Fotima Ismoilova Izzat qizi

MRDI 1-bosqich Muzeysunoslik, tarixi-madaniy

obyektlarni konservatsiya qilish,

ta'mirlash va saqlash 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18785523>

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli kompozitor va dirijyor Muxtor Ashrafiyning hayoti va boy ijodiy merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, uy-muzeining tashkil topish tarixi, eski va yangi ekspozitsiyalarining tarkibiy tuzilishi va zamonaviy konseptual yondashuvlari yoritiladi. Bundan tashqari, maqolada O'zbekiston muzeylariga davlat tomonidan qaratilayotgan e'tibor, 2017–2027-yillarga mo'ljallangan kompleks dastur va tegishli qarorlar orqali muzeylarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Muxtor Ashrafiy, muzey, eksponat, opera, musiqa, balet, ekspozitsiya, fond, dastur, reekspozitsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется жизнь и богатое творческое наследие выдающегося композитора и дирижёра Мухтора Ашрафия. Рассматриваются история создания его дома-музея, структура экспозиции как старой, так и новой, а также современные концептуальные подходы к её организации. Кроме того, в статье обсуждаются вопросы развития музеев Узбекистана в рамках государственной поддержки, комплексной программы на 2017–2027 годы и соответствующих постановлений.

Ключевые слова: Мухтар Ашрафи, музей, экспонат, опера, музыка, балет, экспозиция, фонд, программа, реэкспозиция.

Abstract. This article examines the life and rich creative legacy of the prominent composer and conductor Muxtor Ashrafiy. It discusses the history of his house museum, the structure of both its original and new exhibitions, as well as modern conceptual approaches to their organization. Additionally, the article addresses the development of museums in Uzbekistan within the framework of state support, the 2017–2027 comprehensive program, and relevant governmental decrees.

Keywords: Mukhtar Ashrafi, museum, exhibit, opera, music, ballet, exhibition, collection, program, re-exposition.

M.Ashrafiy O'zbekiston professional musiqa madaniyatining asoschilaridan biri bo'lib, davlatimiz musiqa madaniyati tarixiga kirdi. Uning hayoti va ijodi misolida respublika musiqa madaniyati rivojining dastlabki qadamlaridan o'z davrida erishilgan yuksak ravnaqigacha bo'lgan bosqichlarini ko'rish mumkin. Respublikamiz keng jamoatchiligi tomonidan yuksak e'tirof etilgan, davlat va xalqaro mukofotlar sohibi, taniqli kompozitor va dirijyor, jamoat arbobi Muxtor Ashrafiy o'zbek musiqa san'atining yorqin namoyandalaridan biri sifatida xalqimiz faxriga aylangan. Uning serqirra ijodi va fidokorona faoliyati milliy musiqa madaniyatimiz taraqqiyotida

muhim o'rin tutadi hamda bugungi kunda ham yuksak qadrlanadi. Bu atoqli kompozitorning respublika musiqa madaniyatini rivojlantirish ishiga qo'shgan hissasi benihoya katta. M.Ashrafiy qirq yillik ijodiy faoliyatida milliy musiqada ko'plab professional janrlarni shakllantirdi. Shuningdek, rang-barang musiqa merosimizning dunyoviy ahamiyatini ochishga harakat qildi. Shu asosda tadqiqot mavzusi dolzarbligi shundaki, Muxtor Ashrafiy merosi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham milliy musiqa madaniyatini o'rganish, uni ommalashtirish va muzey ekspozitsiyasida jonli tajriba orqali namoyish etish uchun muhim manba hisoblanadi. Binobarin, uning ijodiy faoliyatini chuqur tahlil qilish respublika va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda musiqa tarixini ilmiy yondashuv bilan o'rganishga imkon yaratadi.

O'zbekiston Hukumatining 1976-yil 22-iyuldagi "Muxtor Ashrafiy xotirasini abadiylashtirish to'g'risida" gi 440-sonli qarori[6;258] va O'zbekiston SSR Madaniyat Vazirligining 1976-yil 1-oktyabrdagi 301-sonli buyrug'i[8;110] qabul qilingan. Mazkur buyruq Muxtor Ashrafiy uy-muzeyini tashkil etish jarayonining amaliy bosqichga o'tganligini tasdiqlovchi muhim ijroiy hujjat hisoblanadi. Unda O'zbekiston Hukumatining 1976-yil 22-iyuldagi qarorini hayotga tatbiq etish mexanizmi aniq belgilab berilgan. Xususan, Toshkent Davlat konservatoriyasi huzurida uy-muzeyni tashkil etish uchun maxsus komissiya tuzilishi muzeyni yaratish ishlariga tizimli va ilmiy yondashuv qo'llanilganini ko'rsatadi. Buyruq bilan tasdiqlangan komissiya tarkibiga yetakchi musiqa pedagoglari, san'atshunos olimlar hamda madaniyat sohasi boshqaruv hodimlarining kiritilishi Muxtor Ashrafiy merosini to'plash, tizimlashtirish va ekspozitsiya qilish jarayonlarida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinganidan dalolat beradi. Bu holat uy-muzeyning nafaqat xotira maskani, balki ilmiy-ta'limiy muassasa sifatida shakllanishiga xizmat qilgan. Shu tariqa, mazkur buyruq Muxtor Ashrafiy uy-muzeyining tashkil etilishida tashkiliy-huquqiy poydevorini mustahkamlab, uning keyingi faoliyat yo'nalishlarini belgilab bergan asosiy hujjatlardan biri sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

1969-yildan to 1975-yilgacha musiqachi yashagan uy qisman ta'mirlanadi[11;3]. Yerto'la xonalari musiqa saloniga moslab jihozlanadi, bosh kirish yo'li, qayta ta'mirlanadi. Faqat bitta xonadagi – kompozitorning xotira xonasidagi jihozlar o'z holicha saqlanib qolinadi. Qolgan zallarga ekspozitsiyalar joylashtiriladi [4;81]. Muzey 1982-yil 11-iyunda kompozitor tavalludining 70-yilligi munosabati bilan faoliyatini boshladi[9;2]. Muzeyning umumiy hajmi – 345,0 kv metr, muzey ekspozitsiyasi – 240,0 kv.m. [10;46] ni tashkil etadi. Muzeyga yil davomida tashrif buyuruvchilar soni o'rtacha – 5000 ta, bir oyda tashrif buyuruvchilar soni – 420 tani tashkil etadi. Muzeyga yil davomida va oylik tashrif buyuruvchilar sonining o'rtacha ko'rsatkichlari uning jamoatchilik orasida qanchalik katta qiziqish uyg'otishini va madaniy ahamiyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, fondagi noyob eksponatlar va ekspozitsiya boyligi bilan birga tomoshabinlar uchun ta'sirchan madaniy tajriba yaratish imkoniyatini tasdiqlaydi.

Ekspozitsiya ikki qavatdagi oltita zalga joylashgan. Muzey eksponatlarining umumiy soni - 16859 tani tashkil etib, shundan, rangtasvir - 30 ta, grafika - 69 ta, haykaltaroshlik - 16 ta, amaliy san'at asarlari - 34 ta, maishiy ashyolar - 111 ta, suratlar - 2013 ta, hujjatlar - 476 ta, numizmatika - 53 ta, boshqa eksponatlar - 14057 tani tashkil etadi [5;3]. Ushbu boy fond orqali tashrif buyuruvchilar nafaqat Muxtor Ashrafiy hayoti va ijodini chuqurroq anglab, balki XX asr O'zbekiston musiqiy madaniyati va oila, maktab, sahna muhitini ham his qilish imkoniga ega bo'ladi. Har bir eksponat – tarixiy dalil, madaniy meros va pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi, shuning uchun ular muzeyning ilmiy, ma'rifiy va estetik qiymatini belgilovchi asosiy boylik hisoblanadi.

Muzeyga kiraverishda portretdan sizga irodali, dono, biroz charchoq ifodasi bilan qarab turgan sochlari oqargan kishi boqadi. Bu insonning nomi o'zbek sovet musiqasi tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Uning hayot bosqichlari – bu O'zbekiston musiqiy madaniyati tarixining sahifalaridir. Birinchi orkestr partiturasidan boshlab, o'zbek sahnasidagi birinchi opera spektakligacha, ilk

o'zbek operasi va simfoniyasigacha – bularning barchasi uning nomi bilan chambarchas bog'langan...

Bo'lajak kompozitor 1912-yil 11-iyunda qadimiy va navqiron Buxoroda, o'z davrining taniqli sozanda va ashulachi oilasida dunyoga keldi. Bu oilaga taniqli kuychi va qo'shiqchilar tashrif buyurib turishardi. Shonazar Soxibov, Qori Kamol, Domla Halim Ibodov, Ota G'iyos Abdug'ani kabi mohir ustalarning soz va qo'shiqlari yosh Muxtorga xalq va klassik musiqaga katta ta'sir qilardi. Boshlang'ich musiqa ta'limini Buxoro sharq musiqa maktabida el-yurt o'rtasida shuhrat qozongan taniqli sharq musiqachilari Toxirjon Jalilov, Abduqodir Ismoilov qo'lida tahsil ko'rdi. Shu bilan birga Ashrafiy Buxorodagi maorif institutini tamomladi. Samarqanddagi O'zbekiston musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutida o'qigan davri yosh musiqachining o'sishida birinchi pog'ona vazifasini o'tadi. Institutda uch yil o'qish M.Ashrafiyga katta foyda keltirdi. U xalq san'atini chuqur egallash bilan birga, jahon musiqa madaniyati xazinasini bilan yaqindan tanishdi.

M.Ashrafiyning birinchi mustaqil asari 1932-yilda simfonik orkestr uchun yozilgan "Qurilish" marshi bo'ldi. Bu milliy kompozitor tomonidan yozilgan birinchi simfonik partitura bo'lib, unda yangi turmush hamda go'zal kelajak qurilishini madh etgan. Keyinchalik, Muxtor Ashrafiy o'zining bilimini oshirish maqsadida Moskvaga yo'l oladi. Bu yerda unga kompozitor S.N.Vasilenko ustozlik qiladi. 1939-yili Komil Yashin librettosi asosida Ashrafiy va Vasilenko ijodiy hamkorlikda yaratgan birinchi o'zbek operasi – "Bo'ron" vujudga keladi. Bu milliy musiqa san'ati rivojida yangi bosqichning boshlanishi hisoblanadi.

Oradan ikki yil o'tgach M.Ashrafiy S.N.Vasilenko bilan hamkorlikda yaratgan ikkinchi asari K.Yashin va M.Raxmon librettosi asosida yozilgan "Ulug' kanal" operasidir. Bu, Katta Farg'ona kanali qurilishining qahramon bunyodkorlariga bag'ishlangan zamonaviy mavzudagi birinchi o'zbek operasi edi.

Kompozitorning o'zbek musiqa san'atiga qo'shgan katta hissalaridan biri uning Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek simfonik asarlarini yaratganidir. U o'zining ikki simfoniyasi bilan O'zbekistonda orkestr musiqasining monumental janriga asos soldi. Uning birinchi "Qahramonlik" simfoniyasi rus xalqi bilan birdamlik hissi, yuksak fuqarolik pafosi bilan sug'orilgan edi. Asar jamoatchilik orasida katta shuhrat qozondi va yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu esa Muxtor Ashrafiyning nafaqat kompozitor sifatidagi mahoratini, balki xalqni ruhlantirish va milliy musiqa madaniyatini boyitishdagi ulkan xizmatini yanada oshkora ko'rsatadi.

A.Navoiyning "Sab'ai sayyor" asari motivlari zaminida maydonga kelgan "Dilorom" operasi kompozitorning jiddiy yutug'i edi. Unda san'atning qudratli axloqiy ta'sir kuchi, beg'ubor va erkin sevgi musiqiy obrazlarga aylangan. Mazkur san'at asari respublikamizda bo'lgani singari undan tashqarida ham Moskvada o'tkazilgan 1959-yil Uchinchi O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasida ham yuqori baholandi. Keyinchalik opera birinchi marta kinoekranda yangradi. Bu birinchi o'zbek opera filmi edi.

Ikki yil o'tgach M.Ashrafiy I.Sulton librettosi asosida yozilgan "Shoir qalbi" operasini yaratadi. "Shoir qalbi" operasida o'zbek ma'rifatparvar shoiri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning oliyjanob qiyofasi aks etadi. Bu asar Ashrafiy ijodining ravnaqida muhim o'rin egalladi. "Shoir qalbi" operasi orqali Muxtor Ashrafiy o'zbek adabiy merosini musiqiy sahnaga muvaffaqiyatli tatbiq etganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi.

M.Ashrafiyning "Sevgi tumori" B.Garginining "Soni va Maxival" dramasi motivlari asosida hamda "Temur Malik" S.Ayniyning "Temur Malik" asari asosida baletlari teatr san'atiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Bu asarlarda kompozitor chinakam dramatik musiqa allomasi sifatida

ko'rindi, ko'p planli dramatik vaziyatlarni musiqa mohirona ifoda etdi. "Sevgi tumori" uchun "Javoharlal Neru" nomidagi xalqaro mukofotga sazovor bo'ldi. Ikkinchi "Matonat" baleti uchun muallif Kamol Abdul Nosir mukofoti laureati bo'ldi. Kompozitorning so'nggi asari Firdavsiyning "Shohnoma" motivlari asosida solistlar va orkestr uchun "Rustam haqida doston" oratoriyasi hisoblanadi. Zo'r mahorat va muhabbat bilan yozilgan bu musiqiy doston kompozitorga yanada katta shuhrat keltirdi. Uning musiqali dramalari, opera va baletlari faqat tarixiy ahamiyatga ega bo'libgina qolmasdan, zamonamiz va hayotimizga hamohangligi bilan ham ahamiyatli sanaladi.

Muxtor Ashrafiy Toshkent davlat konservatoriyasi rektori sifatida kuchli dirijyorlarni yetishtirdi. Undan A.Navoiy nomidagi o'zbek davlat opera va balet katta teatrining badiiy rahbari va bosh dirijyori O'zbekiston xalq artisti Dilbar Abdurahmonova, O'zbekiston xalq artisti A.Abduqayumov, Respublikada xizmat ko'rsatgan artistlar G'ani To'laganov, Farrux Soliyev, Quvonch Usmonov, Ergash Toshmatov va boshqalar tahsil ko'rishgan.

O'zbek musiqa san'atining rivojlantirishiga beqiyos hissa qo'shgan M.Ashrafiyning nomi uning vafotidan so'ng abadiylashtirilgan. Bir necha yillar davomida o'zi uzoq yillar ishlagan va rahbarlik qilgan Toshkent Davlat konservatoriyasi, poytaxt ko'chalaridan biri, respublika qator musiqa maktablari uning nomi bilan ataldi. Kompozitorning bolalik va o'smirlilik yillari o'tgan qadimiy Buxoro shahridagi ko'chalardan biri va musiqa bilim yurtiga uning nomi qo'yilgan. Kompozitor, dirijyor, musiqa olimi, murabbiy, ijodkor M.Ashrafiyning uy-muzeyi ham uning xotirasiga cheksiz ehtirom ramzidir. Shuningdek, davlat va jamoatchilik tomonidan uning milliy musiqa madaniyatini rivojlantirish borasidagi xizmatlari yuksak baholangan. Muxtor Ashrafiy yuksak faxriy unvonlar, davlat hamda xalqaro mukofotlar, orden va medallar bilan taqdirlangan. Bu e'tiroflar uning o'zbek musiqa san'ati taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasining amaliy tasdig'idir.

Muzey ekspozitsiyasi tashrif buyuruvchilarni uning hayoti va ijodidagi yorqin sahifalar bilan tanishtiradi. Muzey fondining asosini M.Ashrafiyning shaxsiy arxivi tashkil etadi. Muzey fondlarida jamlangan ulkan materiallar Ashrafiy qirq yildan ortiq vaqt davomida o'zining katta va yorqin iste'dodini musiqa san'atini rivojlantirishga bag'ishlaganini yaqqol namoyon etadi. Ekspozitsiya orasida xatlar, telegrammalar, fotosuratlar, afishalar va dasturlar, hujjatlar, sovg'alar hamda suvenirlar mavjud. Bugungi kunda muzeyda 16 mingdan ortiq muzey ashyolari jamlangan. Muzey besh zal va memorial kabinetdan iborat. Bu zallarda uning bastakorlik va dirijyorlik faoliyatidagi ilk qadamlaridan boshlab, ijodiy yetuklik davri, bastakorlik mahoratining eng yuqori cho'qqilarigacha, shuningdek, 30 yildan ortiq vaqtni qamrab olgan pedagogik faoliyati haqida hikoya qilinadi. Ashrafiyning hayoti 1975-yil 15-dekabrda uzilganiga qaramay, hozir ham muzey vestibulida tashrif buyuruvchilarni M.Ashrafiyning iroda va qat'iyatni aks ettiruvchi haykaltaroshlik portreti kutib oladi.

Muzeyda, shuningdek, M.Ashrafiyning memorial kabineti ham joylashgan bo'lib, unda bastakor hayotlik chog'idagi muhit va interyer to'liq saqlab qolingan. Bu esa tashrif buyuruvchilarga bastakor ijod qilgan muhitni chuqurroq his etishga yordam beradi. Xonada M.Ashrafiyning shaxsiy kutubxonasi saqlanadi. Kitoblar orasida Sharq va Yevropa tillarida yozilgan tarix, falsafa, tasviriy san'atga oid asarlar, badiiy adabiyot, nota to'plamlari hamda musiqashunoslikka oid adabiyotlar mavjud. Shuningdek, bu yerda bastakor asarlarining nota-avtograflari, uning qo'lyozmalari ham saqlanadi. Bu yerda yozuv stoli, ustiga N.Rimskiy-Korsakov portreti qo'yilgan pianino bor. Ish stoli ustida M.Ashrafiy hayotining so'nggi davrlarida foydalangan narsalar turibdi.

Ekspozitsiyada musiqachining jamoat faoliyati ham keng va atroflicha yoritilgan. Unda uning ko'plab festival, tanlovlar, san'at kunlari, konsertlar va musiqiy kechalarni tashkil etuvchi

hamda faol ishtirokchi sifatidagi o'zni, shuningdek, partiyaviy va deputatlik faoliyati aks ettiriladi. Ekspozitsiyaning rang-barang bo'limlaridan biri M.Ashrafiyning xorijiy madaniyat arboblari bilan aloqalarining ahamiyatini yoritadi. Xususan, Chexoslovakiya (ChSSR), Hindiston, Birlashgan Arab Respublikasi (BAR), Eron va Seylon madaniyat namoyandalari bilan hamkorliklar O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarini kengaytirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynagani ko'rsatiladi. Xorijdan keltirilgan suvenirlar alohida qiziqish uyg'otadi. Ular orasida Javoharlal Neru, Indira Gandidan olingan sovg'alar, shuningdek, Hind-Sovet va Misr-Sovet do'stlik jamiyatlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan esdalik buyumlari mavjud. Bu eksponatlar nafaqat O'zbekistonning xorijiy madaniy aloqalari va diplomatik hamkorligini namoyish etadi, balki xalqaro do'stlik va madaniy almashuvning amaliy belgisi sifatida muzey ekspozitsiyasining tarixiy va ma'rifiy qiymatini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, muzey eksponatlari fondi noyob buyumlar bilan to'la. Qimmatli to'plamlar orasida xalq cholg'u asboblari jamlanmasi alohida o'rin tutadi. Ular milliy ansambl uchun maxsus tayyorlangan bo'lib, xalq ustasi A.Zokirov tomonidan muzey uchun bezatilgan. Muzey ekspozitsiyasida restavratsiya qilingan qadimiy jangovar soatlar ham namoyish etilgan – ular bastakorga tegishli bo'lgan. 1937-yilda yozib olingan “Qurilish” marshining plastinkasi o'zbek musiqasida birinchi simfonik partitura ohanglarini qayta eshitish imkonini beradi. Bu nodir asarlarni muzeyga O'zbekiston SSR xalq artisti I.Mollayev sovg'a qilgan. Tasviriy materiallar qatorida J.Neru va Indira Gandi haykallari, D.Kolesnikov haykaltaroshlik ishlari bilan bir qatorda ekspozitsiya “Bo'ron” va “Dilorom” spektakllari qahramonlarining liboslari bilan ham boyitilgan. Ular Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston SSR Davlat akademik katta opera va balet teatridan olingan. Bu eksponatlar Ashrafiy ijodi bilan birga O'zbekiston sahna san'ati va teatr merosini ham yoritadi.

Musika saloni esa pastki qavatdagi ikkita xonani o'rnini egallagan. Kirish xonasini jihozlashda usta Abdullaevning yog'ochdan tayyorlanib, sadaf qadab naqsh solingan o'zbek milliy musika asboblari kolleksiyasi katta qiziqish uyg'otadi. Shinam konsert zalida M.Ashrafiy xotirasiga bag'ishlab kechalar o'tkaziladi, uning yaqin kishilari, kasbdoshlari, konservatoriya talabalari shu yerda yig'iladilar.

O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini zamon talablari asosida rivojlantirish, ularning ilmiy-ekspozitsion salohiyatini oshirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli qarori **“2017–2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”** [7] qabul qilingan.

Mazkur dastur muzeylar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ularni kapital ta'mirlash, zamonaviy saqlash sharoitlarini yaratish, fond ishini takomillashtirish hamda ekspozitsiyalarni ilmiy konsepsiya asosida qayta shakllantirishni nazarda tutadi. Unga ko'ra, davlat muzeylarining ishlab chiqiladigan yangi konsepsiyalari, muzey ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratgan holda har bir muzey binosining eskiz loyihasini muzeyning yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tasdiqlanishi ko'zda tutilgan. Dasturda alohida ravishda muzey ekspozitsiyalarini zamon talablari asosida yangilash, ya'ni reekspozitsiya jarayonlarini amalga oshirish, interaktiv va multimedia texnologiyalarini joriy etish, tashrif buyuruvchilar uchun qulay va mazmunan boy ekspozitsion muhit yaratish vazifalari belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda Muxtor Ashrafiy uy-muzeyida olib borilayotgan kapital yangilanish va reekspozitsiya ishlari ham mazkur davlat dasturining amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Reekspozitsiya jarayoni nafaqat eksponatlarni qayta joylashtirish, balki ularni yangi ilmiy konsepsiya asosida tizimlashtirish, bastakorning hayoti va ijodini yanada chuqurroq va zamonaviy talqinda namoyish etishga qaratilgan. Bu esa muzeyning ma'rifiy va estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Dastur doirasida muzeylarda:

- ekspozitsiyalarni konseptual jihatdan qayta ishlab chiqish;
- fond ashyolarini saqlash sharoitlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- ilmiy-tadqiqot va ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish

kabi vazifalar belgilangan bo'lib, bu jarayonlar uy-muzeylar faoliyatiga ham bevosita tatbiq etiladi.

Muxtor Ashrafiy uy-muzeyining reekspozitsiya qilinishi bastakor merosini yangi avlodga zamonaviy shaklda yetkazish, uning ijodiy merosini yanada chuqurroq ochib berish hamda muzeyni milliy musiqa tarixining muhim ilmiy-madaniy markaziga aylantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, amalga oshirilayotgan kapital yangilanish va reekspozitsiya ishlari tasodifiy jarayon emas, balki davlat tomonidan **“2017–2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”** asosida olib borilayotgan tizimli islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi 1982-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning ekspozitsiyasi o'sha davr muzeyshunoslik tamoyillariga muvofiq ravishda xronologik tartib asosida shakllantirilgan. Bastakor hayoti va ijodi bosqichma-bosqich yoritilgan bunday model o'z vaqtida ilmiy va ma'rifiy jihatdan to'g'ri yechim bo'lgan. Biroq bugungi kunda Londondagi “Handel va Hendrix uy-muzeyi” [2], Moskvadagi “Glinka nomidagi Musiqa muzeyi” [1] hamda Bokudagi “Uzeyir Hojibeyli uy-muzeyi” [3] tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tomoshabin faqat fakt va sanalarni emas, balki hissiy tajriba, interaktiv muloqot va immersiv muhitni kutadi. Bunday yondashuv ekspozitsiyani oddiy biografik ketma-ketlikdan chiqarib, uni g'oya va mavzu markazli, zamonaviy talqinga ega tizimga aylantiradi. Zamonaviy musiqa muzeylarida ekspozitsiya markazida shaxsning hayoti emas, balki uning g'oyasi, ijodiy fenomeni va madaniy ta'siri turadi. Muxtor Ashrafiy merosini ham milliy opera maktabining shakllanishi, dirijyorlik san'ati rivoji, sharq va g'arb musiqiy an'alarining uyg'unligi, pedagogik faoliyati hamda xalqaro aloqalari kontekstida yoritish mumkin. Bunday yondashuv ekspozitsiyani oddiy biografik ketma-ketlikdan chiqarib, uni mazmunan chuqurroq va tahliliy tusga ega qiladi.

Zamonaviy musiqa muzeylari tajribasida (Vena musiqa muzeyi) audio muhit ekspozitsiyaning asosiy elementi hisoblanadi. Shu bois Muxtor Ashrafiy uy-muzeyida ham individual audio tajribani markazga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Har bir zalda QR-kod orqali asarlardan qisqa audio fragmentlarni tinglash imkoniyati yaratilishi, “Ashrafiy asarlari evolyutsiyasi” nomli interaktiv nuqtada bir tugma orqali turli ijodiy davr musiqalarini taqqoslash imkoniyati berilishi, shuningdek, sensorli ekran yordamida orkestrni virtual boshqarish tajribasini joriy etish mumkin. Bunday yondashuv tashrif buyuruvchini passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ekspozitsiyaning ta'sirchanligini oshiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy muzeylarida (“Vena musiqa muzeyi”, Londondagi “Handel va Hendrix uy-muzeyi”) multimedia va vizual dramaturgiya keng qo'llanilib, video proyeksiyalar, opera sahnalari rekonstruksiya hamda 3D dekoratsiya vizualizatsiyasi orqali tomoshabinda kuchli emotsional muhit yaratiladi. Muxtor Ashrafiy uy-muzeyida ham operalaridan sahna maketlarini jonli audio va yorug'lik drammatizatsiyasi bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bunday yechim oddiy vitrinali namoyishdan ko‘ra ta’sirchanroq va esda qolarli ekspozitsion muhit yaratadi.

1980-yillar muzeylarida ko‘p matn, kam vizual dinamika va statik vitrinalar ustun bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy ekspozitsiyada minimal matn, ko‘proq audio, yorug‘lik dramaturgiyasi va “toza makon” estetikasidagi dizayn qo‘llaniladi. Shunday qilib, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyining yangi reekspozitsiyasi an‘anaviy xronologik modeldan zamonaviy, interaktiv va konseptual modelga o‘tishni nazarda tutishi lozim. Asosiy maqsad – bastakor merosini shunchaki ko‘rsatish emas, balki uni his qildirish, tinglatish va zamonaviy tomoshabin bilan muloqotga kiritishdir. Ana shundagina muzey tarixiy xotira maskani bilan bir qatorda, jonli musiqa va madaniy tafakkur markaziga aylanishi mumkin.

1982-yil modeli “ko‘rsatish”ga qaratilgan bo‘lsa, 2026-yil modeli “his qildirish”ga yo‘naltiriladi. Muzey reekspozitsiyasining asosiy vazifasi Ashrafiy merosini faqat tarixiy fakt sifatida emas, balki jonli musiqa tajribasiga aylantirishdir.

Bundan tashqari, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi fondida uning oilaviy suratlari juda ko‘p saqlansa-da, ekspozitsiyada oilasiga atigi bitta vitrina ajratilgan va oilasi hayoti hamda shaxsiyati haqida deyarli hech qanday eksponat namoyish etilmagan. Shu nuqtai nazardan, reekspozitsiya jarayonida Ashrafiy oilasi hayotini ham alohida konseptual blok sifatida namoyish etish, oilaviy suratlar, shaxsiy buyumlar va esdaliklarni integratsiyalash orqali tomoshabinga bastakor shaxsining insoniy qiyofasini yanada yaqin va to‘liq ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi bugungi kunda musiqa san‘ati ixlosmandlari va keng jamoatchilik uchun muhim madaniy maskanlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Tashrif buyuruvchilar muzey ekspozitsiyasi bilan tanishar ekan, buyuk kompozitor va dirijyorning hayoti hamda ijodiy yo‘li, uning o‘zbek musiqa san‘ati rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini chuqurroq anglash imkoniga ega bo‘ladilar. Muzey eshiklarining doimo ochiq bo‘lishi, unda o‘tkaziladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlar va musiqa salonidagi ijodiy uchrashuvlar Muxtor Ashrafiy merosining avloddan avlodga yetib borishiga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, uy-muzey nafaqat xotira maskani, balki milliy musiqa san‘atini targ‘ib etuvchi va boyituvchi jonli madaniy markaz sifatida Muxtor Ashrafiy haqidagi xotiraning hamon yashab kelayotganini yaqqol namoyon etadi.

Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi reekspozitsiyasida xronologik ketma-ketlikni saqlagan holda, ekspozitsiyani konseptual bloklarga ajratish tavsiya etiladi: milliy opera maktabi, dirijyorlik faoliyati, pedagogik ishlar, Sharq va G‘arb musiqiy an‘analari hamda xalqaro aloqalar orqali bastakor merosini yoritish lozim. Har bir zalda QR-kodli audio fragmentlar, interaktiv tugmalar orqali turli davr musiqalarini taqqoslash va virtual orkestr boshqaruvi tashrif buyuruvchini faol ishtirokchiga aylantiradi. Operalardan sahna maketlarini jonli audio va yorug‘lik dramatisatsiyasini uyg‘unlashtirish, minimal matn va “toza makon” estetikasini qo‘llash ekspozitsiyani esda qolarli va immersiv qiladi. Shuningdek, oilaviy suratlar va shaxsiy buyumlarni alohida blok sifatida namoyish etish Ashrafiy shaxsining insoniy qiyofasini yanada yaqinlashtiradi. Asosiy maqsad bastakor merosini shunchaki ko‘rsatish emas, balki **his qilish, tinglash va tomoshabin bilan interaktiv muloqotga kiritishdir.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://app.fta.art/institution/7eb0f25cd5481bf846e028cf0783b8c56a5b14b6?utm_source=murojaat sanasi **18.02.2026.**
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Handel_Hendrix_House?utm_source=murojaat sanasi **18.02.2026.**

3. https://shusha.gov.az/en/abide/uzeyir-hacibeylinin-ev-muzeyi?utm_source= murojaat sanasi **18.02.2026.**
4. Kuryazova D. Muzey ishi asoslari. – T.: “Lesson press”, 2019. – 198 b. bb-81.
5. Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi, 2022-yilgi yillik hisobotidan. – 3 b.
6. “Muxtor Ashrafiy xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida” gi 440-sonli qarori. // ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 401-иш, 86-варақ; Р-837-жамғарма, 41-рўйхат, 3956-иш, 258-варақ.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda gi 975-sonli qarori **“2017–2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”** // <https://lex.uz/docs/-3451889?ONDATE=01.04.2019%2001> murojaat sanasi **18.02.2026.**
8. O‘zbekiston SSR Madaniyat Vazirligining 1976-yil 1-oktabrdagi 301-sonli buyrug‘i // ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 1-рўйхат, 289-иш, 18-варақ; Р-2487-жамғарма, 3-рўйхат, 4291-иш, 110-варақ.
9. Ўз МА. М – 7-жамғарма, 1 - рўйхат, 443-иш, 2-варақ.
10. Ўз МА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 671-иш, 2-варақ; Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 714-иш, 46-варақ.
11. ЎзМА. Р-2296-жамғарма, 7-рўйхат, 399-иш, 3-варақ.